ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O‘zFA akademigi
T. MIRZAYEV	- O‘zFA akademigi
SH. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. SH. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M. M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. YA. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G‘OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
KIM SUNGHAE	- Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH	- Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY		
Sultonmurod Olim	Ishq talqini: “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr” majozdan maqsad – haqiqat	4
Малиновский Е.А., Ткебучава И.Г.	О новом фразеологическом словаре современного русского языка	8
Hasanov Sh. A.	Kinoqissalar poetikasiga bir nazar	11
Xatamov Z., Sanaqulov U.	Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘rganilishi va unga berilgan baho	14
Sulaymonov I. I.	Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va esse imkoniyatlari	17
Aslanova H. A.	Ijodiy mutanosiblik va Gadoiy ijodi	22
Шералиева Ш. А.	Проблемы эквивалентности религиозных фразеологизмов в английском, русском и узбекском языках	25
Sulaymonova D. A.	Murojaat lingvistik tadqiqotlar ob’ekti sifatida	28
Timirov A. M.	Omonim so‘zlarning tarjimadagi roli	31
Саттарова С. О., Туйчиева Д. Р.	Основные аспекты изучения грамматических особенностей предложения	34
Xudoyorova S. T.	Frazeologik va paremiologik birliklar semantikasida tarixiy ijtimoiy voqealar (ingliz va o‘zbek tillari misolida)	37
Ташбекова Д. И.	О взаимосвязях и взаимоотношении словообразования и лексики в русском языке	40
Soliev A.	Tarixiy drama va xarakter	43
Rahimov M. R.	Nemis tili ilova konstruksiyasining ayrim strukturaviy xususiyatlari	46
Jo’raxolova B. Q.	O‘zbek va nemis tillarida «Ayol» va «Erkak» tushunchalarining gender farqlari, stereotiplari o‘zbek va nemis xalq maqollari misolida	50
Mirsanov B. M.	Nemis tilida hayvon va uning a’zosi nomi orqali voqyelangan qo’shma terminlar	53
Musurmanov E.	O‘zbek va xitoy mifologiyasida bosh totemistik tushunchalar talqini	57
Sobitova T.	"Orzigul" dostonidagi ma'naviy va lafziy san'atlar	60
Sultonova N. N.	Isajon Sulton nasri poetikasi	67
Mamatqulov M. R.	Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida tashbih san’ati	71
Вохидова Н. А.	Персизмы в русском языке	75
Yaxshiyeva Z. R.	Tetralogiyada poetik g’oya va pafos uyg’unligi	78
Атаева Г. М., Умарова О. С.	Репрезентация структурных особенностей междометных фразеологических единиц в английском языке	80
PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS		
Taylakov U. K.	«Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratish bosqichlari	83

Xasanova X. N.	Umumiy o‘rta talim maktablarida organik kimyoni o‘qitishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish usullari	86
Madatov I. Y.	Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish (blended learning texnologiyasi misolida)	91
Nurboboyev Sh. B.	Bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashda refleksiv yo’naltirilgan ta’lim muhitining ilmiy-metodik jihatlari	96
Ilxomov B. I.	Professional ta’lim muassasalari boshqaruv xodimlarining raqamlashtirilgan iqtisodiy faoliyatdagi kompetentligi	99
Sharipov E. O., Shodiyev S. Yu.	O‘qituvchining pedagogik texnikasi va innovatsion faoliyatining o‘quvchilar bilan muloqotidagi roli	103
Ibraymov A. Y.	Masofaviy o’qitishning zamonaviy modellari	108
Egamov M. X.	Texnika oliy ta’lim muassasalarida sferik trigonometriya fanini fuzionizm g‘oyasi asosida o‘qitish usullari	112
Davronova G. M.	Bo’lajak musiqa o’qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	115
Kipchakov B. B., Ismoilova F. I.	Badminton bo‘yicha sport tayyorgarligi bosqichlari va uning mazmuni	119
Yadgarova O. I.	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari	123
Kadirov T. B.	Malaka oshirish ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish masalalari	127
Oqnazarov T. J.	Integratsiyalashgan axborot ta’lim muhitini yaratishning didaktik-texnologik shartlari	130
Mannabov J. T.	Masofaviy ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	132
Axmedov F. Q., Utayev Z. M.	Sport mashg’ulotlari jarayonida o’quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g’oyalarni singdirishning pedagogik asoslari	137
Tojiyeva X. B.	Adabiyotda sharqona o’qitish usullari	140
Azimov A.	Buyuk alomalarning yoshlar tarbiyasiga doir fikrlari	144
	PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY	
Saidov A. I.	Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari	148
Xalbayeva G. A.	Zamonaviy psixologiyada bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligining psixologik muammolari	151
Isakova M. T.	Davlat boshqaruvi va shaxs ruhiy salomatligi	158
Toxirova M. U.	Ko’rishda nuqsoni bor shaxslarning xarakter xususiyatlariga psixologik tasnif	162
Урунов А. Ш.	Моделирование процесса профилактики девиантного поведения (социально-психологический аспект)	165
Eshmurodova Z. R.	Sharq va g’arb xalqlari tilida bola tug’ilishi bilan bog’liq marosim va urf-odatlar	169

Mualliflarga

UDK 372.854

UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABLARIDA ORGANIK KIMYONI O‘QITISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

X.N.Xasanova
Navoiy viloyat Xalq talimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
x_xurshida1989@inbox.uz

Annotatsiya. Bugungi kunda organik kimyoni o‘qitishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik materiallardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, o‘quv dasturi, bo‘shliq, faoliyat, metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o‘qitish.

Проблемы преподавания органической химии в общеобразовательных школах и пути их преодоления

Аннотация. В настоящее время в процессе преподавания органической химии выявляются пробелы в знаниях студентов. Исходя из этого в данной статье приведены примеры дидактических материалов, которые могут быть использованы для устранения пробелов в обучении органической химии.

Ключевые слова: учебник, учебная программа, пробелы в знаниях, деятельность, методология, дидактика, педагогика, небольшая группа, урок, обучение, преподавание.

Problems of teaching organic chemistry in secondary educational schools and ways to overcome

Abstract. The article provides examples of didactic materials that can be used to bridge the gaps in student knowledge of organic chemistry. The article provides examples of didactic materials that can be used to eradicate gaps.

Keywords: textbook, syllabus, gap, activity, methodology, didactics, pedagogy, small group, lesson, teaching, education.

Taraqqiyotning eng yuqori darajaga koʻtarilishida mamlakatda yangi bilim va yangicha yondashuvlarning vujudga kelishiga ehtiyojning paydo boʻlishi juda muhimdir. Barcha sohalar kabi kimyo fanini oʻqitishda mavjud boʻlgan muammolarning bartaraf etilishi ham ertangi istiqboldagi yutuqlarimizdan biridir. Kimyo fanini oʻqitishni takomillashtirish uchun sohada faoliyat yuritib kelayotgan umumiy oʻrta talim maktablarining kimyo fani oʻqituvchilarining bilimi va kasbiy mahoratini zamon talablariga moslashtirish va xalqaro miqyosda talimda roʻy berayotgan yangiliklar va islohotlardan xabardor boʻlib borishlari va ulardan eng samaralilarini oʻz faoliyatlarida qoʻllab borishlarini taminlash nihoyatda muhimdir.

Talim-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi malum. Chunki aynan yaxshi talim oʻzining qadr-qimmatini anglagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega boʻlgan insonlarni tarbiyalashga yordam beradi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi boʻlgan talim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yoʻlida borayotgan mamlakatimizning talim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, uning uzluksizligini taminlash, ilgʻor pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda talim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor boʻlish, darslarda va darsga tayyorgarlik jarayonida ana shu resurslardan olinayotgan malumotlardan foydalana olish juda muhimdir. Ayniqsa, kimyo fanini oʻqitishda aksariyat kimyoviy jarayonlarni tajribalarda koʻrsatib borilishi, nazariy bilimlarni amaliy mashgʻulotlar yordamida mustahkamlab borilishi nihoyatda muhimdir.

Organik kimyo fanidan oʻquvchilar bilishi kerak boʻlgan tushunchalar nihoyatda koʻp boʻlib, ularni toʻliq oʻquvchiga yetkazib berish uchun oʻqituvchidan katta kuch va mashaqqatli mehnat talab etiladi. Oʻquvchining diqqatini tortish, darsda uning zerikmasligini taminlash, mavzuga boʻlgan etiborini orttirish - samarali darsning asosiy maqsadi sanaladi. Kimyoning barcha tarmoqlari qatori organik kimyoni oʻqitishda interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalar yordamida yangicha bilim berish usullarini qoʻllagan holda, qiziqarli darsni tashkil etib, oʻquvchilarga saboq berish bugungi kun kimyo fani oʻqituvchilarining asosiy vazifasidir. Organik kimyo fanini oʻqitishda fanning har bir boʻlimining xossalari, ishlatilishi, olinishi va boshqa jihatlarini eslab qolishni yaxshilash uchun noananaviy usullar va vositalardan foydalanish dars sifatini oshirishda yangicha mezon sanaladi. Organik kimyoning murakkab mavzularini tushuntirishda, oʻsmirning psixo-fiziologik jihatlarini etiborga olgan holda darsni tashkil etish, topshiriqlar va didaktik texnologiyalarni oʻquvchi yoshi va dunyoqarashini inobatga olgan holda tanlash zarurati, oʻquvchining oʻz-oʻzini rivojlantirish va oʻz ustida ishlashi uchun oʻqituvchi tomonidan unda motivatsiyaning shakllantirilish holatlari ushbu maqolada yetarlicha chuqur tadqiq etilgan.

Fanni oʻqitish samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda maqsadni aniq qoʻyish va kutiladigan natijani aniq erishiladigan qilib belgilab olish ham muhimdir. Ananaviy oʻqitish usullariga tayangan umumiy oʻrta talim maktablari hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarga toʻla mos keladigan bitiruvchilarni tayyorlash imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun, oʻquv jarayonini takomillashtirish, oʻquvchilar qiziqishini oshirish, oʻqitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yoʻllarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda.

Kimyo fanini va uning bo‘limlarini o‘qitishda didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo‘llash haqida, kimyo talimi didaktik tizim sifatida, kimyo talimini boshqarish va tashkil qilish usullari, kimyo fanini o‘qitishda algoritmlar va dasturlardan foydalanish, kimyo talimini tashkillashtirish shakllari, kimyo o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha chet el olimlaridan E.G.Polupanenko, V.A.Kuzurman, I.V.Zadorojniy, E.Ye.Minchenkov, M.S.Pak, D.K.Bondarenko, S.S.Kosmodemyanskaya, S.I.Gilmanshena kabilarning ishlari diqqatga sazovordir [1;3-4].

Organik kimyo asoslarini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, organik kimyoni o‘qitishning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanishni respublikamiz olimlaridan N.G‘.Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomiloilar tomonidan, chet el olimlaridan esa O.S.Gabriyelyan, F.G.Mann, B.Ch.Saunders, M.S.Paklar tomonidan o‘rganilgan [2;9-10].

Kimyo o‘qitish metodikasiga oid dastlabki ilmiy g‘oya va qarashlar XVIII-asrga kelib paydo bO‘lgan. Rus olimi M.V.Lomonosov kimyoviy bilimlarni egallashda kimyoviy tajribalardan foydalanish muhim ekanligini ta’kidlaydi. M.V.Lomonosov kimyo didaktikasini metodologiya, nazariya va tajribalarning yig‘indisidan iborat bo‘lgan fan sifatida ilk bora tarifladi. U kimyo tarixida ilmiy kimyoning asoschisi va birinchi uni fan sifatida o‘qitgan o‘qituvchi sifatida qoladi. U 1748-yili ilk ilmiy-o‘quv kimyo laboratoriyasini tashkil qiladi. Shu laboratoriyada u talabalar uchun fizik-kimyodan maruzalar o‘qiydi, “Asl fizik-kimyoga kirish” nomli asarini yozadi. Ushbu kitobda va olimning ko‘plab boshqa asarlarida kimyo didaktikasi haqidagi fikrlari va qarashlari keltirilgan. Lomonosovning fikricha o‘qitish jarayonida yutuqqa erishishning birinchi omili – bu so‘zni to‘g‘ri qo‘llay olishdir. O‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun darsda turli ovoz intonatsiyalaridan foydalanishni, o‘z so‘zlariga mutanosib holda tana qismlarini harakatlantirish kerakligini aytib o‘tadi. Uning fikricha asosiy ma’lumotni qisqa va lo‘nda tushuntirish, so‘ng albatta, daftarga yozdirish kerak.

Zamonaviy kimyo fani va uning bo‘limlarini o‘qitish jarayoniga quyidagi rossiyalik metodist - olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar: V.N.Verxovskiy, P.P.Lebedeva, L.M.Smorgonskiy, Ya.L.Goldfarb, Yu.B.Xodakov, S.G.Shapovalenko, L.A.Svetkova, I.N.Chertkova, V.S.Polosina, V.P.Garkunova, N.Ye.Kuznetsova, D.M.Kiryushkina, G.I.Shelinskiy, M.S.Pak, O.S.Gabriyelyan va boshqalar. Ushbu metodist olimlar o‘quv-metodik materiallar komplekslari, o‘quv darsliklari, mashq daftarlari va boshqalarni tuzishda ko‘p mehnat qilganlar[3;19-20]. P.A.Orjekovskiyning fikricha: “Rivojlanish-faol va ongli faoliyat natijasida paydo bo‘ladigan qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish, xotira kabi shaxsning bilish jarayonining ijobiy o‘zgarishlaridir.”

Kimyo fani uning bo‘limlarini o‘qitish metodikasining O‘zbekistonda o‘rganilish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, 1990-2012-yillar davomida professor H.T.Omonov kimyo fanini o‘qitish metodikasi sohasini rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Qolaversa, O‘zbekistonlik olimlardan A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboyev, G‘.Boymurodov, M.Umarov, A.Azimov, Sh.Quvvatov, J.Mamajonov, F.Alimova va L.Zaylobovlar kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar.

Talim jarayonlarini modernizatsiya qilish bugungi kunning talabi ekanligini hisobga olgan holda umumiy o‘rta talim maktablarida ***organik kimyoni*** o‘qitishda o‘qituvchi ish tizimi metodikasini yaratildi. Dars jarayonini takomillashtirishga va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, o‘quvchilarning xalqaro talablarga moslashtirish prinsiplarini ishlab chiqildi. O‘quvchida ijodkorlikni rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantira oladigan yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan, 10-sinflarda organik kimyoni o‘qitish samaradorligini oshirishga ijobiy tasir qiladigan, o‘zida o‘quv dasturining har bir mavzusini o‘qitish bo‘yicha didaktik ko‘rsatmalarni mujassamlashtirgan metodik tizimi multimediali talim vositalarini pedagogik texnologiya va yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan elektron axborot talim resursi ishlab chiqildi.

Organik kimyo kimyo fanining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, uni o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ushbu muammolarni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish uchun Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 5-sonli maktabda 2016 – yildan buyon kimyo fani o‘qituvchilarining darslari tahlil qilib borilmoqda va ishlab chiqilgan yangicha metodologik yondashuvlar amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda. Sinflar kesimida ananaviy va noananaviy usullarda darslar o‘tilib, ushbu darslarning samaradorligini aniqlash uchun nazoratlar tashkil qilinmoqda. Bugungi kunga qadar ushbu tadqiqotda shu maktabning jami 187 nafar o‘quvchilar ishtirok etishdi.

Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, metodik adabiyotlar, elektron talim resurslarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik kuzatish, test, tashxislash va tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanil

Olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar natijasida organik kimyoni o‘qitishda quyidagi muammolar

aniqlandi:

1.O‘quvchilar umumiy o‘rta talim maktablarida kimyo fanini o‘qishni 7-sinfdan boshlaydilar. 7-8-9-sinflarda o‘quvchilar dastlab asosiy kimyoviy formulalar va tushunchalarni, kimyoning asosiy qonuniyatlarini, davriy jadval, kimyoviy qonuniyatlar, anorganik moddalarning xususiyatlarini o‘rganadilar. Xullas, uch yil mobaynida o‘quvchilar faqat anorganik kimyoni o‘qiydilar. Biroq, 10-sinfga o‘tgach, ular o‘zlari uchun butunlay yangi bo‘lgan, ilgari kimyoni o‘qish jarayonida sira duch kelmagan malumotlar bilan tanisha boshlaydilar. O‘quvchilarning organik kimyoni o‘rganishda yuzaga keladigan birinchi qiyinchiliklari, ularning birdaniga yangi, ilgari duch kelmagan bo‘limni o‘zlashtira boshlaganliklaridir.

2. Organik kimyoning maktab dasturida o‘qitiladigan mavzulari juda ko‘p, katta hajmdagi malumotlar majmuini o‘z ichiga oladi. Har bir mavzuda moddalarning biror sinfi vakillari haqida malumotlar to‘liq o‘rganilib chiqiladi. Malumotlarning nihoyatda ko‘pligi o‘quvchilarning ularni eslab qolishini qiyinlashtiradi.

3. Har bir mavzu o‘zaro uzviy ravishda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bitta mavzuni tushunmay qolgan o‘quvchi keyingi mavzuni o‘zlashtirishga qiynaladi. O‘quvchilar bilimida yuzaga keladigan bo‘shliqni, pazl bo‘laklariga o‘xshatish mumkin. Agar yaxlit rasmli pazlning birorta qismi tushib qoladigan bO‘lsa, garchi pazlning boshqa qismlari to‘liq yig‘ilsa ham surat ko‘rinishi ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

4. O‘quvchilar o‘zi tanlagan mutaxassislik uchun topshiradigan imtihonlari mavjud bo‘lgan fanlar bo‘yicha yaxshigina tayyorgarlik ko‘radilar, o‘sha fanlar o‘qitiladigan darslarga diqqat qiladilar, lekin aynan boshqa fanlarga bee’tibor bo‘ladilar. Umumiy o‘rta talim maktablarida kimyo fanini o‘qitishda yuzaga keladigan to‘rtinchi muammo sifatida turli boshqa sohalardagi talim muassasalariga o‘qishga kiradigan o‘quvchilarning kimyo fanini o‘zi uchun keraksiz deb hisoblab, fanga qiziqmay qo‘yishlaridadir.

5. Organik kimyoni maktabda o‘qitishda yuzaga keladigan beshinchi muammo sifatida men aynan yuqori sinf o‘quvchilari uchun darsni qiziqarli tashkil etishga yordam beradigan metodlarni tanlaganda, yosh xususiyatlarini inobatga olish kerakligini aytishimiz mumkin. Bu esa o‘qituvchidan ko‘proq tayyorgarlikni va izlanuvchanlikni talab qilganligi sababli o‘qituvchilar darsda metodlar va didaktik o‘yinlardan kam foydalanadilar. Natijada o‘quvchilar fanni qiyin va zerikarli fan sifatida biladilar va unga qiziqmay qo‘yadilar.

6. Organik kimyoni o‘qitishda yuzaga keladigan oltinchi muammo mavzularda nazariy malumotlarning ko‘pligi o‘quvchilarning mavzular yakunida masalalar yechishlariga imkon bermasligidadir.

7. Organik kimyoni o‘qitishni qiyinlashtiradiigan yana bitta muammo – bu shu sohadagi malumotlarni o‘z ichiga olgan elektron darsliklar va multimediali ilovalarning yetarli emasligidadir.

8. O‘qituvchilarning yoshi kattaroq o‘quvchilarga dars o‘tishda ularni tartibga chaqira olmasliklari, buning natijasida dars sifatining pasayishini kuzatishimiz mumkin.

9. Kuzatuvlar, tahlillar va amaliyot shuni ko‘rsatdiki, navbatdagi muammo o‘quvchilarga organik kimyoni o‘qitishda hayot bilan bog‘langan bilimlarning yetarlicha berilmasligidadir. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga o‘rgatayotgan bilimlarining aynan qaysi sohada qo‘llanishini yetarlicha tushuntira olmasligidadir.

10. Organik kimyoni o‘qitishni yaxshilashda yuzaga keladigan yana bir muammo, maktablarda laboratoriya reaktivlari va jihozlarining yetarli emasligidadir.

Ushbu bir necha yillik tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- organik kimyoni o‘qitish jarayonida kimyo fani o‘qituvchilari kundalik joriy nazoratlarni ko‘proq olib, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlash va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan darslardan so‘ng shug‘ullanib, bu muammoni bartaraf etishlari lozim.

- o‘quvchilarga bilim berar ekanmiz, ularning kelajak hayotda ana shu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ham inobatga olishimiz kerak bo‘ladi. Ayniqsa, kimyo fani o‘quv dasturida o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlariga, har bir mavzuga tegishli savol va topshiriqlarni yechishga katta ahamiyat berish lozim, tegishli bo‘limlar tugatilgandan so‘ng olingan nazariy bilimlar test sinovlarini bajarish orqali mustahkamlab borilishi kerak. Laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlarni faqat daftarda nazariy jihatdan emas, amaliyotda bajarib ko‘rsatib berish kerak bo‘ladi. Kimyo fanini o‘qitar ekanmiz, organik kimyoning asosiy mohiyatini tashkil etadigan muhim tushunchalar, nozik organik sintez muammolari, respublikamizda organik kimyo sanoati erishgan yutuqlari, tabiat va jamiyatga kimyoviy ishlab chiqarishning ekologiyaga tasiri haqidagi bilimlar bilan tanishtirib borish o‘qituvchilarga o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishga yordam beradi[4;80-92].

- chet el xorij tajribasini o‘rganar ekanmiz, ularning davlat talim standartlarida ham asosan hayotda qo‘llaniladigan bilimlar berilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilarga beradigan bilimlarimizni hayot

bilan bog‘langan holda berishimiz o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga yordam beradi[5;15-22].

- hozirgi kunda o‘quvchilarda o‘quv predmetlari bo‘yicha faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emasligi malum bo‘lmoqda. Bugungi kunda fanning ko‘chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o‘suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish umumiy o‘rta talim maktablarida organik kimyoni o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi[6].

Yuqoridagi xulosalarga asoslangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- O‘zida organik kimyoni o‘qitishni yaxshilash va o‘quvchilarni fanga bO‘lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladigan mantiqiy topshiriqlar ishlab chiqildi:

“Kontekst matnli topshiriq”. Ushbu topshiriqda moddaning reaksion xususiyatlari beriladi, o‘quvchilar ushbu xususiyatlarga qarab moddani aniqlashlari kerak bo‘ladi.

1.Anvarning oldiga uch nomalum modda kelib, ular o‘zaro aka-uka ekanligini aytdilar. Oralaridagi asosiy farq 2 tadan vodorod ekanini takidladilar. Bunda akasiga nisbatan ukalarida vodorodlar soni 2 tadan kamayib boradi. Uchchalasining ham nomining o‘zagi bir xil bo‘lib, oxiridagi qo‘shimcha bilan farq qiladi. Eng kattasiga birikish reaksiyasi xos emas, ikkita kichigiga esa birikish reaksiyasi xos. Harorat va Ni katalizatorligida ular bir-biriga aylanishi mumkin. Aka-uka uglevodorodlarni nomini aniqlang.

Javob: etan, eten, etin.

2. 10-“A” sinf o‘quvchisi Sadriddin darsdan so‘ng laboratoriyaga kirib, laborantga reaktivlarni yig‘ishtirishga yordam bermoqchi bo‘ldi. Laborant fenol va etil spirti turgan idishlarning yorlig‘ini eskirib yozuvi xiralashib qolganligini aytdi. Sadriddin buni aniqlashni oson usuli borligini aytdi. Bitta reaktiv yordamida laborantga moddalarni aniqlab, yorlig‘larni yangilashga yordam berdi. U qanday reagentdan foydalangan?

Javob: U fenolning NaOH bilan tasirlashib, etanolni esa tasirlashmasligidan foydalanib moddani aniqlab bergan.

3.Barcha organik moddalarda uglerod atomi tO‘rt valentli boladi. Organik moddalarning formulalarini tuzishda bu narsa inobatga olinadi. Faqat benzolning formulasini tuzishda olimlar ancha vaqtgacha ikkilanib turadilar. Mashhur kimyogar olimlardan biri tushida dumini tishlab turgan ilonni koradi. Shundan so‘ng benzolning eng aniq formulasini tuzishga muvofaq bo‘ladi. Olim kim edi?

Javob: Kekule

4.Yorlig‘siz idishda nomalum organik modda bor. Laborant uni spirtda, efirda va benzolda yaxshi erishini, teriga tushsa kuydirishini aniqladi. Moddaga $FeCl_3$ tasir ettirilganda, binafsha rangli cho‘kma hosil bO‘ldi. Moddani aniqlang. Uning binafsha rangli cho‘kmasining molekulyar massasini toping.

Javob: Modda fenol. Uning cho‘kmasi $(C_6H_5O)_3Fe$ Mr=335

Organik kimyoni O‘qitishni takomillashtirish uchun quyidagi bir necha didaktik o‘yinlardan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi:

1-topshiriq. Uchinchisini topish kerak.

Bu o‘yinda o‘quvchilar kerak bo‘lgan uchinchi qismni yozadilar. Ushbu tenglikdan so‘ng ikkita monomerning qo‘shilishidan olingan polimerning nomini yozish kerak bo‘ladi.

a) fenol +formaldegid = ….

b) monomer+temperatura=…

c) mochevina+formaldegid=…

2-topshiriq. Raqamlar so‘zlaganda usuli. Bu usulda doskada muayyan sonlar yoziladi. O‘quvchi ana shu sonlarga bog‘liq kimyoviy tushunchalarni keltiradi.



1.10-bu oligomerlar tarkibidagi aminokislotalar soni. 2. 50-bu peptidlar tarkibidagi aminokislotalar soni. 3.5000-bu yuqori molekulyar birikmalarning molekulyar massasi. 4.3-bu yuqori molekulyar birikmalarning turlari. 5. 28-bu etilenning molekulyar massasi…

Xuddi shunday ushbu qatorni yana davom ettirishimiz mumkin. Usulning afzallik tomoni shundaki, bunda O‘quvchi raqamlarni va ularga bog‘liq tushunchalarni eslashi, xotirasidan aynan shu raqamlar bilan bog‘liq tushuncharni topishi kerak bO‘ladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-aprel 2017-yildagi 187-sonli “Umumiy O‘rta va O‘rta maxsus, kasb-hunar talimining davlat talim standartlarini tasdilash tO‘g‘risida”gi qarori 5-ilovasiga muvofiq umumiy O‘rta va O‘rta maxsus, kasb-hunar talim muassasalari uchun umumtalim fanlaridan o‘quv metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish belgilangan. Shundan kelib chiqib, **“Organik kimyoni o‘qitishda innovatsiyalardan foydalanish”** nomli o‘zida organik kimyoni o‘qitish bo‘yicha barcha nazariy ma’lumotlarni va ushbu mavzularni o‘qitish bo‘yicha didaktik O‘yinlar va innovatsion usullarni birlashtirgan multimediali elektron talim resursi yaratilgan (O‘z.R. malumotnoma DGU 2019 1385 sonli 30.10.2019). Ushbu elektron multimediali talim resursidan organik kimyoni o‘qitishda foydalanish natijasida darslarning pedagogik samaradorligi ortgan.

Yuqorida umumiy o‘rta talim maktablarida organik kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini pasayishiga sabab bo‘layotgan muammolar haqida to‘xtalib o‘tdik. Har bir muammoni chuqur tahlil qilar ekanmiz ularning yechimini topish va bartaraf qilish uchun o‘qituvchi pedagoglarimiz muayyan tizimli yondashuvlarni ishlab chiqishlari va o‘z faoliyatlarida qo‘llab borishlari lozim ekanligini takidlamasdan ilojimiz yo‘q. Ishlab chiqilayotgan yondashuvlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ular yashab turgan muhit, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, qiziqishlarini inobatga olgan holda yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy dunyo zamonaviy bilimga ega bo‘lgan yoshlarni talab qilar ekan, hayotimizning barcha jabhalari uchun kerakli bo‘lgan soha hisoblangan kimyo fanini o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda har bir mavzuni o‘quvchiga yuqori darajada o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda darslarni o‘tilishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1.Касаткина, Градусова «Современные образовательные технологии в учебном процессе вуза»-Кемерова: (I drug), 2011

2. Рахматуллаев Н.Ғ., Омонов Ҳ.Т., Миркомилов Ш.М. Кимё ўқитиш методикаси. – Тошкент: (Иқтисодиёт – Молия), 2013.

3.Пак М.С. Теория и методика обучения химии. - Санкт-Петербург: (РГПУ имени Герсена), 2015.

3. Габриелян О.С. «Теория и методика обучения химии» - Москва: (Академия),2009.

4.Рахматуллаев Н.Ғ., Омонов Ҳ.Т., Миркомилов Ш.М. Кимё ўқитиш методикаси. – Тошкент: (Иқтисодиёт – Молия), 2013.

5. Каримова Г.Қ., Алиходжаева Г.С. Илғор таьлим-тарбия технологиялари ва жаҳон тажрибаси. Ўқув-услубий мажмуа.-Тошкент, 2017.

6.Омонов Ҳ.Т., Хаттабоев М.Б. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: (Иқтисод - Молия), 2016.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib **X. Sh. Tashpulatov**
Texnik muharrir **A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - f.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov - PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.